



2020- yilning yanvar-oktabr oylari uchun Buxoro viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida Buxoro viloyatida jami **4 420,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **104,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2020- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda

2020- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2705 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 269 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **104,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **62,1 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **116,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **126,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **29,3 %**) o'sishidir.




Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.11.2019- yil	01.11.2020- yil	
Buxoro viloyati	2436	2705	111,0
Buxoro sh.	826	892	108,0
Kogon sh.	96	109	113,5
<i>tumanlar:</i>			
Olot	56	68	121,4
Buxoro	193	224	116,1
Vobkent	104	119	114,4
G'ijduvon	173	198	114,5
Kogon	116	133	114,7
Qorako'l	82	95	115,9
Qorovulbozor	37	42	113,5
Peshko'	126	145	115,1

Romitan	208	218	104,8
Jondor	200	222	111,0
Shofirkon	219	240	109,6


**Buxoro viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.11.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Buxoro sh. (33,0 %), Shofirkon (8,8 %) va Buxoro (8,3 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **790,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **156,7 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **5,9 %** punktga ko'payib, **17,9 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qororvulbozor tumanida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **82,0 %** i yoki 2019- yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan **109,4 %**), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **54,8 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **66,2 m.**), va Kogon tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,8 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,6 m.**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,1 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,3 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **102,2 %** ni tashkil etgan holda **2 392,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **28,0 %** ni tashkil etdi yoki **1 238,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **90,3 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **204,8** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4 215,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,6 %** va **95,4 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Buxoro viloyati	4420,7	204,8	4,6	4215,9	95,4
Buxoro sh.	1039,0	76,4	7,4	962,6	92,6
Kogon sh.	303,4	15,2	5,0	288,2	95,0
<i>tumanlar:</i>					
Olot	314,3	12,8	4,1	301,5	95,9
Buxoro	392,1	6,5	1,7	385,6	98,3
Vobkent	112,8	3,9	3,5	108,9	96,5
G'ijduvon	404,7	11,3	2,8	393,4	97,2
Kogon	327,3	6,5	2,0	320,8	98,0
Qorako'l	235,4	33,9	14,4	201,5	85,6
Qorovulbozor	271,9	7,3	2,7	264,6	97,3
Peshko'	197,9	6,1	3,1	191,8	96,9
Romitan	320,6	4,6	1,4	316,0	98,6
Jondor	289,2	14,1	4,9	275,1	95,1
Shofirkon	212,1	6,2	2,9	205,9	97,1

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2020- yil yanvar-oktabr

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **54,6 %** i yoki **2 414,7** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

54,6 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **372,3** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **15,4 %** ni tashkil etdi

15,4 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **979,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **40,6 %** ni tashkil etdi.

40,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hisssasi **1 063,1** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **44,0 %** ni tashkil etdi.

44,0 %




**2020- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Buxoro viloyati	4420,7	104,8	2414,7
Buxoro sh.	1039,0	100,4	606,1
Kogon sh.	303,4	122,6	193,2
<i>tumanlar:</i>			
Olot	314,3	103,3	147,1
Buxoro	392,1	108,7	179,2
Vobkent	112,8	100,2	67,8
G'ijduvon	404,7	101,6	244,1
Kogon	327,3	111,6	198,3
Qorako'l	235,4	105,5	100,4
Qorovulbozor	271,9	105,4	75,2
Peshko'	197,9	103,4	133,2
Romitan	320,6	102,2	218,9
Jondor	289,2	107,6	128,3
Shofirkon	212,1	100,7	122,9

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **7,0 %** ni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,6 %** ga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019-yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga ko'payib, **49,5 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019-yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,4 %** punktga kamayib, **43,5 %** ni tashkil etdi.

ulushi, % da




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **26,6 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **3,4 %** punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **73,4 %** (**3,4 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.

ulushi, % da

Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar




2019- yil yanvar-oktabr 2020- yil yanvar-oktabr



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **10,7 %** punktga ko'paydi va **49,5 %** ni tashkil etdi. Qolgan **50,5 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **10,7 %** punktga kamaydi.

ulushi, % da






**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-oktabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	4420,7	2846,1	826,4	748,2
Buxoro sh.	1039,0	673,8	219,7	145,5
Kogon sh.	303,4	125,3	106,5	71,6
<i>tumanlar</i>				
Olot	314,3	228,2	16,3	69,8
Buxoro	392,1	265,7	51,5	74,9
Vobkent	112,8	75,2	14,5	23,1
G'ijduvon	404,7	306,3	61,7	36,7
Kogon	327,3	157,5	77,6	92,2
Qorako'l	235,4	152,8	61,0	21,6
Qorovulbozor	271,9	87,6	60,8	123,5
Peshko'	197,9	159,1	31,8	7,0
Romitan	320,6	247,7	50,0	22,9
Jondor	289,2	238,1	30,5	20,6
Shofirkon	212,1	128,8	44,5	38,8



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Jondor tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **82,3 %** i yoki **238,1** mlrd. so'm), shuningdek, Peshko' tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **80,4 %** i yoki **159,1** mlrd. so'm), Romitan tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **77,3 %** i yoki **247,7** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Kogon shahriga (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **35,1 %** i yoki **106,5** mlrd. so'm), Qorako'l tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **25,9 %** i yoki **61,0** mlrd. so'm), Kogon tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan **23,7 %** yoki **77,6** mlrd. so'm) da qayd etildi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Qorovulbozor tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **45,4 %** i yoki **123,5** mlrd. so'm), Kogon tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **28,2 %** i yoki **92,2** mlrd. so'm), Kogon shahri (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining **23,6 %** i yoki **71,6** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-oktabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Buxoro sh.
1 039,0

G'ijduvon t.
404,7

Buxoro t.
392,1

Kogon t.
327,3

Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori
hajm ko'rsatkichi Buxoro sh. (1 039,0 mlrd. so'm),
G'ijduvon (404,7 mlrd. so'm), Buxoro (392,1 mlrd. so'm),
Kogon (327,3 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: 65 223-81-99